

## VALERIANA OFFICINALIS L. NING URUG' UNUVCHANLIGI

Sharifmurodov Karamatullo Ibroximzoda

Sohibov Toyir Shohnazarzoda

Axmatov Davlatshoh Shuxratovich

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14674889>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolda *Valeriana officinalis* L. o'simligining urug' unuvchanligini aniqlashga qaratilgan. Turli haroratda unish muddatlari va unuvchanlik qobilyati aniqlangan.

Tegishli xulsa va fikrlar keltirilib o'tilgan. Shuningdek maqolada o'simlikning botanik tavsifi, kimyoviy tarkibi, dunyobo'ylab tarqalish areallari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** *Valeriana officinalis* L., dorivor, urug', unuvchanlik, harorat, barg, poya.

### SEED GERMINATION OF VALERIANA OFFICINALIS L

**Abstract.** This article aims to determine the seed germination of *Valeriana officinalis* L. Germination times and germination capacity at different temperatures were determined. Relevant observations and comments are presented. The article also provides a botanical description of the plant, its chemical composition, and its worldwide distribution areas.

**Keywords:** *Valeriana officinalis* L., medicinal, seed, germination, temperature, leaf, stem.

### ПРОРАСТАНИЕ СЕМЯН ВАЛЕРИАНЫ ЛЕКАРСТВЕННОЙ (VALERIANA OFFICINALIS L.)

**Аннотация.** Целью данной статьи является определение всхожести семян растения *Valeriana officinalis* L. Сроки прорастания и всхожесть семян определялись при различных температурах. Представлены соответствующие взгляды и мнения. В статье также дается ботаническое описание растения, его химический состав и его распространение по всему миру.

**Ключевые слова:** *Valeriana officinalis* L., лекарственное, семена, прорастание, температура, лист, стебель.

**Kirish.** Ildizpoyadan birinchi yili ildizoldi to'pbarglar, ikkinchi yilidan boshlab poya o'sib chiqadi. Poyasi tik o'suvchi 1.5-2.0 metrgacha yetadi. Silindrsimon, mayda qirralli shoxlanmagan (ba'zan yuqori qismlari shoxlangan), ichi kovak, yuqori qismi tuksiz, pastki qismi esa tuklar bilan qoplangan. Bargi oddiy, toq patli ajralgan, 4-11 juft sigmentlar (bo'lakchalar)dan iborat. Ildizoldi barglari uzun bandli bo'lsa, poyadagi barglar bandi poyaning yuqori qismiga yetgani sari qisqara boradi.

Barglari poyada qarama-qarshi joylashgan. Gullari mayda, hidli, poya uchida qalqonsimon yirik ro'vakchaga to'plangan. Kosacha barglari gul ichiga qarab qayrilgani sababli aniq bilinmaydi. Gultojisi varonkasimon besh bo'lakli, uchi ichkariga qayrilgan, oq yoki pushti rangli, otaligi 3 ta onalik tuguni 3 xonali, pastda joylashgan. Mevasi – cho'ziq tuxumsimon, och qo'ng'ir pista. Valeriana o'simligi urug'ini 1000 donasining og'irligi – massasi 0.4-0.6 grammni tashkil qiladi. May oyining oxiridan boshlab avgust – senyabr oylarigacha gullaydi[9].



**1-rasm. Valeriana officinalis L. ning dunyo bo'ylab tarqalishi.**

Valeriana officinalis L ni tabiiy holda dunyo bo'ylab tarqalishini [www.plantarium.ru](http://www.plantarium.ru) sayti tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarda 1-rasmda ko'rish mumkin[10].

Valeriana turkumiga kiruvchi turlar polimorf o'simliklar hisoblanadi. Dunyoda yovvoyi holda ularning 250 ga yaqin turlari qayd qilingan. Shimoliy va Janubiy Amerika, Yevropa va Osiyoning tog'li mintaqalarida tarqalgan. Sobiq ittifoq hududida 23 tur, O'rta Osiyoda 12 tur, Respublikamizda esa 3 tur uchraydi. Valeriana turlari tabiatda tarqoq holda uchragani bois tabiiy zaxiralari farmatsevtika sanoati hamda aholi talabini qondira olmaydi. Tabobatda asosan dorivor valeriana – Valeriana officinalis L, ishlatiladi, mazkur tur maxsus xo'jaliklarda ekib o'stiriladi. Dori vositalari tayyorlash uchun valerianani ildizi va ildizpoyasi ishlatiladi. Buni dorishunoslik amaliyotida “Valeriana ildizi” deb atashadi[2,3,4,7].

Valeriana o'simligidorivor o'simlik xisoblanib, yurak-qon tomir, asab tizimi kasalliklarida samarali foydali ta'sir ko'rsatadi. Valeriana ildiz va ildizpoyasi tarki-bida 0,5—2% efir moyi va

sof xolda izovalerian kislota bor. Valeriananing efir moyi asosan ingichka ildizlarda izovalerian kislota esa yugon va kari ildizpoyalarda kuprok buladi. Bu moy tarkibida izovalerian kislotaning bor neol spirti bilan xosil kilgan m urakkab efiri —bornil izovalerianat, shuningdek, borneolning sirka, chumoli kislotalar bilan xosil kilgan murakkab efiri xamda terpineol, pinen, kamfen, azulen, sof xoldagi borneol, izovalerian kislota va boshka birikmalar bo'ladi[1,5,6,8].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'simlik turkum va turlarini aniqlashda Определитель растений Средней Азии asaridan foydalanildi. Turlarning ilmiy nomlari POWO (Plants of the World Online, 2023) xalqaro elektron ma'lumotlar bazasi asosida keltirildi. Ma'lumotlarning statistik tahlillari Mikrosoft Excel 2014 dasturlari yordamida amalga oshirildi.

**Tadqiqot natijalari.** Dastlab petri likopchalarini maxsus sharoitda 100C0 haroratda sterelezatsiya qildik. 1 yil tinim davrida bo'lgan Valeriana officinalis urug'larini kaliy permanganat eritmasining 0.1% li eritmasi bilan ishlov berdik. So'ng urug'larni Petri likopchalariga nam filtr qog'oz ustiga 100 donadan sanab, 5 takroriylikda termostatlarga joylashtirdik. Havoning nisbiy namligi 25 % etib belgilandi. Har kuni urug'larning unib borishi kuzatib borilib, filtr qog'ozning qurib qolmasligi uchun unga distillangan suv quyib borildi. Kunlik kuzatishlar natijasi maxsus kuzatuv daftarga yozib borildi. Haroratning bunday ko'p variantda kuzatishdan maqsad Valeriana officinalis o'simligi urug'larining unuvchanligi uchun optimum haroratni aniqlash edi va tajribalarimiz davomida ko'zlangan natijalarga erishdik(1-jadval). Urug'lar tajriba qo'yilgandan 5-kunida 30 C0 haroratda unib chiqishni boshladi. Urug'larning unuvchanligiga haroratning tasiri ham turlicha ta'sir qilishi mumkinligi aniqlandi va olingan natijalar tahlil qilindi. Harorat ortishi bilan o'simlik urug'larining unish tezligi ham oshdi, shu bilan birga unish foizi ham yuqorilab bordi. Ko'p yillik o'simlik bo'lgan Valeriana officinalis o'simligining urug'lari labartoriyada unish foizi o'rganilgach, dala sharoitida ham urug' unuvchanligi aniqlandi.

#### **Valeriana officinalis L. ning urug' unuvchanligi**

*1-jadval*

<b>T/r</b>	<b>Harorat</b>	<b>Unish davri</b>	<b>Unish foizi</b>
1	15-20	10-13	25-26
2	20-25	7-10	30-45
3	25-30	5-8	60-75

1-jadvaldan ma'lumki o'simlik 15-20 C haroratda 10-13 kun davomida 25-26 foiz undi. 20-25 C haroratda esa 7-10 kunda 30-45 foiz undi. Eng optimal sharoit 25-30 C haroratda 5-8 kunda 60-75 foizni tashkil qildi.

**Xulosa.** Dorivor valiriana o'simligi ko'p tomonlama foydali bo'lib uni biologik xususiyatlaridan biri urug' unuvchanligi uchun eng optimal sharoit 25-30 C ni tashil qildi. Unish foizi esa 65-70 % ga yetdi.

## REFERENCES

1. G'Xurramov O., Sunnatullayev A. S. BOTANIKA DARSLARIDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 12. – C. 405-407.
2. Hojiyeva A., Xurramov O. Ziziphora tenuior o'simligining dorivorlik xususiyatlari //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 8-10.
3. I.R. Asqarov "Tabobat qomusi" Toshkent 2019 yil. 198b.
4. Rahmonqulov U., Umirov N. H., Xurramov O. Jizzax davlat pedagogika instituti JIZZAX VILOYATI MUHOFAZA HUDUDLARIDA UCHROVCHI "QIZIL KITOB" GA KIRITILGAN O' SIMLIKLAR HAQIDA //МИНТАҚАВИЙ МУАММОЛАРИ. – 2017.
5. Sharifmurodov K., Xurramov O. KITOB DAVLAT GEOLOGIK QO 'RIQXONASI HUDUDIDAGI O 'SIMLIKLAR TAHLILI //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 9. – C. 68-75.
6. Xudoyorova N., Zayniyeva R., Xurramov O. BIO XILMA-XILLIKNI O'RGANISH VA SAQLASH USULLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – T. 57. – №. 7. – C. 207-210.
7. кизи Талибова М. Д. и др. КУЛЬТИВИРОВАНИЕ БАКТЕРИЙ В РАЗЛИЧНЫХ УСЛОВИЯХ НА АГАР-АГАРНОЙ ПИЩЕВОЙ СРЕДЕ //American Journal of Modern World Sciences. – 2024. – T. 1. – №. 6. – C. 45-51.
8. <https://shifo.uz>
9. <https://uzbbg.uz>
10. <https://www.plantarium.ru>